

**DAVLAT ULUSHI ISHTIROKIDAGI JAMIYATLARDA MHXS  
ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH VAMOLIYAVIY  
HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI**

*Odiljonova Oybarchin Fayzullo qizi  
Toshkent Moliya instituti Magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat ulushiga ega bo'lgan jamiyatlarda MHXS asosida buxgalteriya hisobini amalga oshirish masalalari muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, xalqaro standart, hisob tizimi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, hisobot, transformatsiya.

**KIRISH**

Bugungi kunda davlat ulushiga ega bo'lgan kompaniya va firmalarning operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish xalqaro standartlarga javob beradigan tarzda olib borish uchun moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tashkil etish, hisob tizimini xalqaro amaliyotda qabul qilingan tizimga moslash, buxgalteriya hisobining asosi bo'lgan hisobvaraqlar rejasi ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etilishi hisob tizimini xalqaro amaliyotga mos ravishda yuritish imkoniyatini yaratadi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Ayrim mutaxassislar fikricha, davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini reyting asosida baholashda - bu turli kredit tashkilotlarini moliyaviy ko'rsatkichlari asosida baholashning taqqoslama tizimidir [1]. Ana shundaytaqqoslama tizim bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hisoblanadi. Masalan rivojlanayotgan davlatlarda banklarning engmuhim ko'rsatkichi bu kredit ishonchligi hisoblanadi. Bank reytingiyuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, uning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari asosida, yoki qisqacha balansi asosida tuziladi. Bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosisida tuzilishi ularning moliyaviy hisobotlarini chet ellik investorlar tomonidan o'qishi va tushuna olishi imkoniyati yaratiladi. Natijada aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini fond bozorida joylashtirish va uning kotirovkasini to'g'ri belgilash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu masalada jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini o'rnini belgilashda muhimligini Rossiyalik iqtisodchi-olim L.B.Trofimovanning ta'kidlashicha, "Jahonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tishi uchun shart-sharoit yaratilishi, Rossiya davlatidagi yirik biznesning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi natijasida taqdim etilayotgan moliyaviy

hisobotlarni biznes vakillari tushunadigan shakllarda taqdim etishni doimiy ravishda takomillashtirib, uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirib borishni zaruriyatini keltirib chiqaradi” [2].

### **TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shuni aytish mumkinki, buxgalteriya hisobi standartlari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir minimal talablari, uni tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir maxsus talablarni bajarishni belgilab beradi. Ushbu masala aksiyadorlik jamiyatida yanada muhim ahamiyatga egaligi va ularning aksiyalarini jahon fond birjalariga joylashtirilishi uchun beriladigan axborot va moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslab taqdim etishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xorijiy mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini reyting baholash usullarining samaradorligi, albatta, aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo‘yilgan reyting natijalariga muvofiq qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo‘llari orqali ifoda etiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

1. Belgilansinki, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o‘tishning ertaroq mud- datlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik sub‘ektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etiladi. Demak aksiyadorlik jamiyatlari 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida taqdim etadi.

Xalqaro hisob tizimini joriy qilishda eng avvalo aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil qilish va yuritish, uni xalqaro hisob tizimiga moslab tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Chunki u aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari fond birjalari orqali chet ellik investorlarga sotishda moliyaviy hisobot shakllari xalqaro amaliyotda qabul qilingan tartibda tashkil etish muhim

hisoblanadi. Buning uchun esa buxgalteriya xodimlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni asosiy tamoyillari va uslubiy asoslari to'g'risida yetarli darajada tushuncha va bilimlarga ega bo'lishlari zarur.

Buxgalteriya hisobi aksiyadorlik jamiyatlari mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining harakatini ko'rsatadi. U aksiyadorlik jamiyatlarning operatsiyalari ustidan yoppasiga va uzluksiz kuzatish olib borish, kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarni o'lchash va hujjatlarda qayd qilish hamda ularni yagona bir o'lchovda, ya'ni pulda ifodalab umumlashtirish tizimidan iboratdir. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanagan holda korxonaning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Ushbu yuqoridagi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash jarayonini tahlil qilish va uni amaliyotga joriy etish tizimini o'rganish asosida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1) Eng avvalo turli davlatlarda tashkil etilgan hisob tizimini tahlil qilish natijasida jahon hamjamiyatida qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotlarni halqaro standartlariga moslashtirish, ayniqsa kompaniya va firmalar moliyaviy ko'rsatkichlariga baho berishda vaularning halqaro miqyosda harakat qilishida vamuham ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ham O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga qo'llashning ishchi rejasi va uning ketma-ketlik dasturini ishlab chiqish lozim.

2. Xalqaro standartlar bo'yicha sezilarli ta'sir mavjud bo'lgan chog'idagi (shu'bakompaniyalariga oid) investitsiyalar hisobi aksiyadorning xo'jalik yurituvchi sub'ekt kapitalidagi ulushi hajmini hisobga oluvchi usul bo'yicha amalga oshirilganda quyidagi holatlar mustasno bo'lishi lozim deb o'ylaymiz:

- agar kapital qo'yilmalar faqat yaqin kelajakda, ya'ni keyingi navbatdagi sotilishi uchun amalga oshirilsa yoki saqlansa;
- investor sezilarli ta'siridan boshqa foydalanmaganda;

3. sho'ba kompaniya o'z faoliyatini qat'iy cheklashlar sharoitida amalga oshirganidabuxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari vujudga keladi.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Xalkaro moliyaviy hisobot standartlari: Darslik /A.A.Karimov, A.K. Ibragimov, N.K. Rizaev, N.M. Imamova - T.: «Iqtisod-Moliya», 2020 - 392 b.B.34-36.
2. Trofimova L.B. Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti. Uchebnik, Izdatelstva "Yurayt" 2018., -242s. S.29-10.
3. Mamatov B. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish muammolari.//“Soliq solish va buxgalteriya hisobi” jurnali №11-son, 2015 yil, 15b.
4. Qurbanov Z.N., Akramov F.A.Asosiy vositalarni MHXS asosida yuritish.//“BIZNES-EKSPERT” jurnali № 4- son, 22.05.2015 yil